

## YOSH OILALARNING IJTIMOIIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

N. X. Djuxonova

FarDu Psixologiya kafedrasi o'qituvchilari

Z. Ergasheva

FarDu Psixologiya kafedrasi o'qituvchilari

### ANNOTASIYA

Ushbu maqolada yosh oilalarning oilaviy hayotlarini barqarorlashtirishda yosh kelin-kuyovlarning oilaviy hayotga biologik, ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy, a'loqiy jihatdan yetukliklari, shaxslararo munosabatlar psixologiyasining o'ziga xos sir-asrorlarini o'rganganliklari, emotsional hissiy munosabatlarning xususiyatlarini bilishlari muhim ahamiyatga ega. Chunki, oilaning mustahkamligi ko'p jihatdan oila qurayotgan yoshlarning oilaviy hayotga qay darajada tayyor ekanligiga bog'liq. SHuning uchun oilaviy hayot zaminida yuzaga keladigan noxush hodisalarning oldini olish, oilalar buzilishining oldini olish va noto'liq oilalar miqdorini kamaytirish, ularda har tomonlama sog'lom psixologik iqlimni yuzaga keltirish borasida amalga oshiriladigan ishlarning samaradorligi shu oilalarni yuzaga keltirayotgan yoshlarning shaxsiga, individual psixologik xususiyatlariga, ularning oilaviy hayotlarini maqsadga muvofiq ravishda tashkil etishga qay darajada tayyor ekanliklariga bog'liqdir.

**Kalit so'zlar.** Oila, shaxslararo munosabat, biologik, ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy, axloqiy jihatdan yetukliklari, yigit vka qizlar, oilaviy hayotga tayyorlash.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ МОЛОДЫХ СЕМЕЙ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье в стабилизации семейной жизни молодых семей важно, чтобы молодые женихи и невесты созрели биологически, социально, психологически, экономически, юридически, духовно и эмоционально, познали специфические секреты психологии межличностных отношений, и знать характеристики эмоциональных и эмоциональных отношений. Потому что прочность семьи во многом зависит от готовности молодых людей, строящих семью, к семейной жизни. Поэтому эффективность работы, проводимой с целью предупреждения неприятных событий, происходящих в семейной жизни, предотвращения распада семей и уменьшения количества неблагополучных семей, создания в них здорового психологического климата, зависит от личности, индивидуально-психологических особенностей. молодых людей, которые создают эти семьи, и цель их семейной жизни зависит от того, насколько они желают организовать соответствующим образом.

**Ключевые слова.** Семья, межличностные отношения, биологическая, социальная, психологическая, экономическая, правовая, духовная, нравственная зрелость, юноши и девушки, подготовка к семейной жизни.

## SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF YOUNG FAMILIES

**Annotation:** In this article, in stabilizing the family life of young families, it is important for young brides and grooms to mature biologically, socially, psychologically, economically, legally, spiritually, and emotionally, to learn the specific secrets of the psychology of interpersonal relationships, and to know the characteristics of emotional and emotional relationships. Because the stability of the family largely depends on the readiness of the young people who are building a family for family life. Therefore, the effectiveness of the work carried out in order to prevent unpleasant events that occur in family life, prevent the breakdown of families and reduce the number of dysfunctional families, and create a healthy psychological climate in them depends on the personality, individual psychological characteristics of the young people who create these families, and the purpose of their family life. depends on how willing they are to organize accordingly.

**Keywords.** Family, interpersonal relations, biological, social, psychological, economic, legal, spiritual, moral maturity, boys and girls, preparation for family life.

O'zbekistonda sog'lom avlodni tarbiyalash, oilani mustahkamlash, ayollarni e'zozlash, onalik va bolalikni muhofaza etishdek insoniy burchlarni ado etishdek insoniy burchlarni ado etish borasida bir qator amaliy dasturlar ishlab chiqilmoqda va hayotga tatbiq etilmoqda. Zamonning ayolga munosabati mavzusini O'zbekiston tajribasida tahlil qiladigan bo'lsak, so'nggi yillarda bu yo'nalishda real, aniq, rejalashtirilgan davlat siyosati olib borilayotganligi natijasida salmoqli o'zgarishlar amalga oshirilayotganligining tarixan shohidi bo'lyapmiz. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari va yana ko'plab normativ hujjatlar orqali mamlakatimizda ayollar masalalari bilan bog'liq ijobiy islohotlar yangi bosqichda takomillashtirilib borilmoqda. Oilaning, xususan, yosh oilaning jamiyat ma'naviy hayoti, uning barqarorligidagi o'rnini va nufuzi yuqoridir. Mustaqilligimizning ilk yillaridanoq oilani, ayniqsa, yosh oilani, onalik va bolalikni, yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish masalalari hukumatimiz siyosatida markaziy o'rin egallab kelmoqda. Chunki, biz insoniyat tarixida unutilmas burilish pallasi - ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiy etgan XXI asrda yashamoqdamiz. Qolaversa, yurtimizda huquqiy demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayoni kechmoqda. Dunyo hamjamiyati bilan turli yo'nalishlarda hamkorlik qilish, oldimizda turgan iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etish hamda jamiyatimizni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan takomillashtirish orqali xalqimiz farovonligini ta'minlash, fuqarolarimizning, oila va kelajak avlodning har tomonlama barkamol, dono, ilg'or fikrli va zakovatli bo'lishiga intilmoqdamiz. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun esa, avvalo, oilaning, shu jumladan yosh oilaning turmush tarzi sog'lom bo'lishiga erishish lozim. Yosh oilaning mustahkamligi, farovonligi, o'zaro-hurmat va ahillikni ta'minlash-milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda, oilaning el-yurt tayanchi bo'lishdek muqaddas vazifasini ado etishini ta'minlaydi. Zero, davlatimiz rahbari oilaning jamiyat taraqqiyotidagi nufuzini ta'riflab, "Oila haqida gapirar ekanmiz avvalambor, oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini

ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllari qanday inson bo'lib etishishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olishimiz kerak"<sup>1</sup>. Bunda yoshlarning oilaviy hayotga etukligi muhim sanaladi. Nikohga etuklik -yoshlarning oila qurish motivlari, nikohga qadar bir-birlarini tanish muddati, shart-sharoitlari, bo'lg'usi oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari kabilar bilan belgilanadi.

Oilaga etuklik bu - oila quruvchi yoshlarning jismoniy, jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi jihatlaridir. SHaxsning psixologik etukligi, dastavval, uning turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni xushyor baholay olishida ko'zga tashlanadi. Bu xushyorlik, amaliylik, voqelikni to'g'ri baholay olish, shaxsda o'zining yutuq va kamchiliklarini bilish, malaka va qobiliyatini etarlicha baholay olishda namoyon bo'lishi kerak. Afsuski, ko'pincha yoshlarning o'z qobiliyatlarini orttirib baholab, o'z oldilariga erishib bo'lmaydigan maqsadlarni qo'yish xollariga duch kelinadi. Ayniqsa, oilaviy hayotni tasavvur qilish, unda o'z o'rnini baholash masalasida yoshlarimizning o'zlarini orttirib baholashi, oilaviy hayotdan mumkin bo'lganidan ko'proq narsani talab qilish tufayli ko'proq xatoga yo'l qo'yish xollari kuzatiladi. Psixologik etuklikning muhim mezonlaridan biri shaxsni oilaviy muammolarni adolatli hal etishga xizmat qiluvchi o'z mustaqil fikri, qarashi, pozitsiyasini bilishi, zarur bo'lganda oila borasida o'z qarashlarini himoya qila olishidir.

Respublikamizda keyingi yillarda oila-nikoh munosabatlari o'zgarib bormoqda. Bu boradagi o'zgarishlarga: 1) oilaning jamiyat oldidagi funksiyalarining o'zgarib borishi; 2) oila a'zolari sonining va tug'ilishning kamayishi, murakkab ko'p oilali tipdan, alohida mavjud bo'lgan oilalar tipiga aylanib borayotganligi; 3) oilaviy munosabatlar tizimida er-xotin funksiyalarining va oilaviy rollar haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning o'zgarib borayotganligi; 4) ayollardagi reproduktiv ustanovkalarining o'zgarib borayotganligi kabilarini kiritish mumkin.

Ma'lumki, insoniyat jamiyat taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, o'zaro munosabatlar ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'ladigan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari, qishloq xo'jaliklari, sanoat ishlab chiqarish, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga o'ziga xos yangicha talablar qo'yimoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar o'zaro muloqat munosabatlari doirasining ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikning ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda o'z ifodasini topadi.

Maxsus adabiyotlarda yozilishicha va o'tkazilgan tadqiqot natijalaridan kuzatilishicha, so'nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akseleratsiya jarayoniga ko'ra ularning jinsiy, fiziologik balog'atga etishi 2-3 yil ilgarilab ketgan. Bundan 100 yilcha oldin yoshlarni jinsiy balog'atga etish davri 15-16 yoshga to'g'ri kelgan, hozir esa bu holat o'rtacha 12-13 yoshlarga to'g'ri keladi.

<sup>1</sup> Каримова И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари.-Т.: “Ўзбекистон”, 1998.-686-б.

Ilgarigi o'smirlar 15-16 yoshlarida oilaviy hayotga etuklik talablaridan biri bo'lmish jinsiy etuklikka, balog'atga etar ekanlar, ular aksariyat hollarda shu yoshga kelib o'sha davrlar uchun xos va lozim bo'lgan, unchalik murakkab bo'lmagan de'qonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar bo'lganlar (chunki u vaqtlarda bolalarning odatda 13-14 yoshida shogirdlikka berishgan), o'sha davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari va texnologik jarayonlar ulardan maxsus yoki oliy ma'lumot talab qilinmagan, 2-3 yil ustoz ko'rgan shogird 16-17 yoshida o'zi ish yuritadigan mutaxassisga aylangan. Mabodo u shu vaqtda oila quradigan bo'lsa, o'z hunari orqali me'nat qilib o'zini va oila a'zolarini iqtisodiy jihatdan ta'minlay olishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, u vaqtlardagi 18-20 yoshli yigit mahalla - ko'yda, jamoatchilik orasida ma'lum darajada ijtimoiy etuk shaxs sifatida qabul qilingan, turli tadbirlar, marosimlarda etuk ishtirokchi sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan, ya'ni uning ijtimoiy jihatdan balog'atga etganligi jamoatchilik tomonidan tan olingan. SHaxsning oila va jamiyat oldida o'ziga xos mas'uliyatni his qilishi esa uning psixologik etukligi alomatlaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Endi shu xususiyatlarning bugungi kun yoshlarida ko'rib chiqaylik. Ular 12-13 yoshlarida jinsiy (fiziologik) etuklikka erishadilar, biroq ular biror - bir kasb-hunar egasi bo'lib, mustaqil ishlab o'zini va oilasini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan bo'lishi uchun avvalo maktabni bitirishi, yoki 9 yil maktabda, 3 yil kollej yoki litseyda o'qishi zarur bo'ladi.

12 yillik barcha uchun majburiy ta'limdan so'ng yoshlarimizning ma'lum bir qismi o'qishni oliy o'quv yurtida davom ettiradi. Bundan ko'rinib turibdiki yoshlarimizning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari ularning ma'lum qismi uchun 20-21, boshqalari uchun 23-25 yoshga to'g'ri keladi. Bundan tashqari odamlarning kundalik hayoti o'zgarib, kiyinishga, maishiy buyumlarga moddiy farovonlik darajasiga bo'lgan ehtiyoji ham ortib bormoqda.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilaning, oila mustahkamligining o'rni beqiyosdir. CHunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog'lomligiga bog'liq bo'lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir.

SHuningdek, jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqqan olmasligi uning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi uni inqirozga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida oilaning hissasi kattadir. CHunki nosog'lom, noqobil va nizoli oilalar, ajrashishlar sonining ortishi, jamiyatga turli iqtisodiy, ijtimoiy ziyon etkazishi bilan birga bunday nosog'lom psixologik muhitda, nizo-janjalli, o'zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelgan, shakllangan bola keyinchalik nafaqat ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatsiz, balki atrofdagilarga, qolaversa o'zi yashagan jamiyatga nisbatan mehr oqibatsiz bo'lib, shafqatsiz, zolim, xudbin jamiyat yurt manfaatlariga zid har xil tashqi kuchlar ta'siriga oson beriluvchan shaxs bo'lib shakllanishi, shu asosda esa o'z oilasi, o'z xalqi, o'z yurti uchun xavfli insonlarning etishib chiqishiga ham asos bo'lishi mumkin.

Demak, oilaning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Oila psixologiyasiga doir eng muhim bilimlarni berish va ular asosida tegishli malakalar va ko'nikmalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

SHuning uchun yosh oilalarda nikoh mustahkamligi borasidagi fikrlarini o'rganish uchun anketa so'rovnomasidan foydalandik.

### YOsh oila vakillarining nikoh, oila mustahkamligi borasidagi fikrlari

1-jadval

Vari- ant	1		2		3		4		5		6	
	qiz	yigit	qiz	yigi- t	qiz	yigit	qiz	yigit	qiz	yigit	qiz	yigit
<b>A</b>	7 28%	12 48%	7 28%	-	17 68%	10 40%	15 60%	16 64%	5 20%	7 28%	16 64%	8 32%
<b>B</b>	5 20%	9 36%	18 72%	6 24 %	-	7 28%	5 20%	4 16%	8 32%	10 40%	7 28%	4 16%
<b>V</b>	13 52%	4 16%	-	19 76 %	8 32%	8 32%	5 20%	5 20%	12 48%	8 32%	2 8%	13 52%

Yosh oila vakillarining nikoh mustahkamligi borasidagi fikrlarini tahlil qiladigan bo'lsak, oila mustahkamligini qizlar ma'naviy, axloqiy va psixologik etuklik bilan yigitlar esa jinsiy va huquqiy etuklik hamda kasb-hunar, ijtimoiy-iqtisodiy etuklik bilan bog'lashdi.

Turmush qurishdagi yoshni qizlar eng maqbul yosh sifatida 18, 19, 20 yoshlarni, yigitlarning aksariyati 21-22 yoshni tanlashdi.

Oila qurishdagi muhim omil sifatida har ikkala jins vakillari fikrlarining yakdilligini sevgi bilan va sovchilar bilan bog'lashlarida ko'rishimiz mumkin. Lekin yigitlarimiz orasida oz bo'lsada (28 foiz) moddiy manfaatdorlikni ustun qo'yib oila qurishni xohlovchilar borligi bizni ajablantirdi.

Oilaviy hayot psixologiyasi borasida yoshlarimizda qanday bilimlar etishmaydi degan savolga respondentlarning 62 foizi jinsiy hayot psixologiyasi haqidagi bilimlar deb javob qaytarishdi. Haqiqatan ham biz yoshlar o'rtasida jinsiy hayot bilan bog'liq tarbiyani keng yo'lga qo'yishimiz lozim, chunki bugungi kunda aksariyat oilalardagi kelishmovchiliklar aynan shu borada yoshlarimizning oz ilmiy bilimga ega ekanligidan kelib chiqmoqda.

Yoshlarning oila qurishlariga qadar bir-birlarini tanish muddati bilan bog'liq fikrlarida yigit va qizlar yarim-bir yil muddatni avzal ko'rishdi. Lekin yoshlar orasida tanish muddatiga qarshi bo'lganlar 40 foizni tashkil qildi.

Yosh oila vakillarining oilaviy hayotga tayyorliklarini aniqlash maqsadida "O'zingizni oilaviy hayotga tayyorman, deb hisoblaysizmi?" savolini berib ko'rdik. "Ha" javobini bergan qizlar 64 foizni, yigitlar esa 32 foizni tashkil etdi. Respondentlarning javoblaridan qizlarimiz yigitlarga nisbatan o'zlarini oilaviy hayotga tayyorlik darajasi bilan yuqori ko'rsatkichga ega ekanliklarini namoyon qildi. "Bilmadim" degan javobni esa 28 foiz qizlar va 16 foiz yigitlar tanlagan. Natijadan qizlar orasida aniq pozitsiyaga ega bo'lmaganlar ko'pchilikni tashkil qilishi ma'lum bo'ldi. Oilaviy hayotga "tayyor emasman" deganlar yigitlar o'rtasida ko'pchilikni ya'ni 52 foizni tashkil etdi. Bundan ko'rinib turibdiki, yigitlar oldin mutaxassislik darajasini egallab, oilani tebratish imkoniyatiga ega bo'lib, so'ng oila qurish lozimligini ta'kidlaganlar.

Nikohga etuklik tushunchasi o'z navbatida o'ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam doimo rivojlanib, takomillashib boruvchi, kasb-hunar faoliyatida va ma'naviy, axloqiy

rivojlanishida muntazam yangidan-yangi cho'qqilarga erishib boruvchi mavjudotdir. Agar odamni u yoki bu faoliyatiga «To'la etukligi» haqida gapiradigan bo'lsak, demak bu uning ma'lum bir chegaraga erishgani va undan ortiq rivojlanish mumkin emasligini bildiradi. SHuning uchun odamning nikohiga yoki biror bir faoliyatiga etukligi haqida gapirilganda «etuklik» tushunchasi tom ma'noda o'rinli bo'la olmaydi. SHu nuqtai-nazardan olganda «etuklik»-rivojlanishning ma'lum bir bosqichi, fazasi, chegarasiga etilganlikning sifatii va miqdoriy tavsifini ma'lum bir aniqlikda belgilab beruvchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Odamning nikohga, oilaviy hayotga etukligi masalasi esa o'ta murakkab biror bir qat'iy me'yor bilan o'lchab bo'lmaydigan individual xarakterga ega bo'lgan ko'rsatkichdir.

Nikoholdi omillari qatoriga shu oila qurayotgan yoshlarning oilaviy hayotga etukligi; ularning oila qurish motivlari; ularning oila qurishlariga qadar bir-birlarini tanish muddati (qancha vaqt bir-birini tanishi ) shartlari va sharoitlari; ularni o'zlarini bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlari kabilarni kiritish mumkin.

Masalan, nikohga etuklik deyilganda, oila quruvchi yoshlarning jismoniy, jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi etuklik jihatlarini farqlash mumkin. Ularning orasida huquqiy, jinsiy etuklik ko'rsatkichlari etarlicha aniq alomatlarga, belgilarga ega bo'lgan va bular haqida tegishli huquqiy, tibbiy, psixologik adabiyotlarda ko'plab ma'lumotlar belgilangan jihatlar bo'lsa, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik jihatlar bir oz murakkabroq, qat'iy bir ko'rsatkich, chegaraga ega emasligi bilan ajralib turadi.

Oilaviy hayotda jinsiy hayot psixologiyasi haqidagi bilimlarga ega bo'lish o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Turli mutaxassislar tomonidan berilgan ma'lumotlarni kompleks tahlil qilingan holda aytish mumkinki, har bir to'rtinchi ajralishgan er-xotinlarda (ajralishlarning 29% ida) jinsiy munosiblikning u yoki bu tarzda bo'lishi (er-xotinning nomutanosibli) sabab bo'lmoqda.

Albatta, o'zaro sevgi, ishonch va hurmat hislari, qiziqishlari va niyatlarning umumiyliigi hislari qisqa vaqt oraliida yuzaga kelgan.

SHunga ko'ra shoshilinch oila qurgan juftlarga jinsiy hayot psixologiyasi borasidagi bilimlar o'z-o'zidan yordam bera olmasligi mumkin.

SHunday qilib, jinsiy etuklik odam anatomiyasi va fiziologiyasi nuqtai nazaridan etarlicha aniq va ravshan bo'lgan xodisadir. YOshlarning nikohga jinsiy etuklik masalasidan tashqari yuqorida keltirib o'tilganidek, yana bir nechta ijtimoiy etuklik turlarini farqlash mumkin. Bular: jinsiy, fuqarolik, kasb-hunar, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va psixologik etukliklardir.

Fuqarolik huquqiy etuklik va odamning huquqiy jihatidan balog'atga etish yoshi bilan, u huquqiy jihatdan oila qurish, farzand ko'rish huquqiga ega bo'lgan shaxs bo'lib hisoblanishi bilan belgilanadi.

Kasb-hunar etukligi bu ham ancha murakkab tushunchadir. Uning murakkabligi shundaki, bir tomondan u qandaydir bir bilim yurtini, o'quv kurslarini bitirish, ya'ni ma'lum bir ish turini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus bilimlarga ega bo'lishi bilan belgilanadi.

SHaxsning etukligining yana bir jihati ijtimoiy-iqtisodiy etuklikdir. Bunda odamning o'zini va o'z oilasini moddiy jihatdan mustaqil ta'minlay ola bilishi nazarda tutiladi. YOshlarni oila qurishlarida, ularning iqtisodiy mustaqilligi alohida ahamiyatga ega.

Gap shaxsning psixologik etukligi haqida borgudek bo'lsa, bundan dastavval uning turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarini hushyor baholay olishi nazarda tutiladi. Bu hushyorlik, amaliylik, voqelikni to'g'ri baholay olish, shaxsda o'zining yutuq va kamchiliklarini, bilim, malaka va qobiliyatini etarlicha ob'ektiv baholay olishda ham namoyon bo'lishi kerak. Afsuski, ko'pincha yoshlar o'z qobiliyatlarini orttirib baholab, o'z oldilariga erishib bo'lmaydigan maqsadlarni qo'yib olish hollariga duch kelinadi. Ayniqsa, oilaviy hayotni tasavvur qilish, unda o'z o'rnini baholash masalasida yoshlarimiz ko'proq xatoga o'zlarni orttirib baholashga, oilaviy hayotdan mumkin bo'lganidan ko'proq narsani kutishga yo'l qo'yish hollari ko'proq kuzatiladi. Psixologik etuklik, shaxs huquqini turli yashash sharoitlariga moslashuvchanligida ifodalanadi. Psixologik etuklik shaxsning boshqa odamlarga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabatlari: hamdardlik, hamfikrlik, g'am-tashvishga sherik bo'la olish, o'zaro yordam kabilar tarzida namoyon bo'la oladigan ma'naviy sifatlarning tarkibiy jihatlarini o'ziga biriktiradi. Psixologik etuklikning muhim me'zonlaridan biri shaxsning oilaviy muammolarini adolatli xal etishga xizmat qiluvchi o'z mustaqil fikri, qarashiga ega bo'lishi, zarur bo'lganda oila manfaatida o'z qarashlarini ota-onalarini oldida himoya qila olishidir.

Demografik nuqtai nazardan olinganda, oila qurish deganda ma'lum bir kishilarni emas, balki butun bir avlodning oila qurishi nazarda tutiladi. Bu o'rinda to'liq ishonch bilan aytish mumkinki, avlod yosh jihatidan qanchalik katta bo'lsa, u biz ko'rib chiqayotgan jihatlarining har biri bo'yicha ko'proq etuk bo'ladi. 20-24 yoshdagi guruh, 20 yoshdan kichik bo'lgan avlodga qaraganda ko'proq hayotiy tajribaga ega bo'ladilar. 1-avlod vakillaridan ijtimoiy - iqtisodiy etuklik darajasi yuqoriroq bo'ladi, chunki aynan shu yoshda ko'pchilik yoshlar o'rta yoki oliy o'quv yurtlarini tamomlagan, u yoki bu kasb - hunarni egallagan bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi «Oila kodeksi»da erkak va ayollar uchun turmush qurishdagi minimal yosh sifatida 18 yosh ko'rsatilgan. Bu yoshni mahalliy qarorga ko'ra, alohida istisnoli holatlarni hisobga olib, ayollar uchun bir yoshga qisqartirish mumkin. Turli mamlakatlarda urf-odatlar va milliy an'analarga bog'lik ravishda erkak va ayollarning turlicha minimal nikoh yoshi belgilangan. Masalan, erkaklar uchun 14 yoshdan (Irlandiya, Ispaniya va Lotin Amerikasidagi ayrim davlatlarda) - 21 yoshgacha (Polsha, Avstraliya, Germaniya va ayrim Skandinaviya davlatlarida) bo'lgan davr orasiga to'g'ri keladi.

Ko'pincha katta avlod vakillari, yoshlarni etuk emaslikda ayblaydilar. Lekin ayni paytda bunday etilmaslikning ob'ektiv sabalari va shart-sharoitlari e'tibordan chetda qoladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, ilmiy va texnikaviy jarayonlarning kechishi yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy va kasb-hunar, texnik etuklikning kechikib ketishiga olib kelmoqda.

Masalaning ikkinchi tomoni, yoshlarni ijtimoiy etilishi bosqichlari va fazalarida ob'ektiv qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi va ularni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi ishlarni amalga oshirishda bu hayotiy xaqiqatni doimo nazarda tutish lozimligidir. Akseleratsiya jarayoni va boshqa omillar tufayli bolalarda jinsiy balog'atga etish ularning bundan 70-100 yil oldingi tengdoshlariga qaraganda 2 yilga erta ro'y bermog'da. SHu bilan bir vaqtda maxsus ta'lim olish, kasb-hunar egallash va iqtisodiy mustaqillikka erishish kamida 22-25 yoshga va undan keyinga surilib kelyapti.

YOshlarning jinsiy balog'atga etishishi va ularning to'la iqtisodiy mustaqillikka erishishi vaqti o'rtasida kamida 5 yildan 10 yilgacha uzilish yuzaga kelib qolmoqda. Bu holat, oldingi avlodlarda kutilmagan bir qator murakkabliklarni va ularga bog'liq ravishda ro'y berishi

mumkin bo'lgan noxushliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Nikoh oldi omillaridan yana biri shu nikoh qurilishiga asos bo'lgan nikoh motivlaridir. «Motiv» iborasi psixologiyada ma'lum bir xulq, faoliyatning yuzaga kelishiga asos bo'lgan kuch, turtki, manba, asosni bildiradi. Psixologik adabiyotlarda bir necha o'nlab nikoh motivlari farqlanadi. Lekin ular umumlashtirgan holda uchta tasnifga farqlanadi. Bular: sevgi tufayli oila qurish, ya'ni yoshlar oila qurishida avval bir-birlarini sevib, ma'lum bir muddat sevib-sevilib yurganlaridan so'ng shu o'zaro sevgining maxsuli sifatida bir-birlarining visoliga etishib oila quradilar.

Oilada er-xotinning bir-biriga hamdard bo'lishi, muammolarni o'zinikiday qabul qilishi o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Ko'pchilik er-xotin o'rtasidagi kelishmovchiliklar arzimagan narsadan boshlanadi. Bir-birini tushunmay qattiq-quruq gaplar aytiladi. Natijada oraga sovuqchilik tushib, mehr-oqibat ko'tariladi. Bu ikki tomonda ham muomala madaniyati etishmaganidan darak beradi. SHunday hollarda ikki kishidan biri og'irlik qilsa, shirin gapirsa olam guliston. Juftining ko'nglini og'ritgan tomonning ikkinchi tomondan uzr so'rashi o'rtada g'uborni qoldirmaydi, bir-birlariga yana qadri oshib hurmat topadi. Insonlar bir-birlaridan farq qilishadi, lekin er-xotin bir-birining xarakterini o'zgartirishga emas, bir-biriga moslashishiga harakat qilishsa nizolardan yiroqroq bo'lishadi.

Qadrli, sevimli kishilarning bir-birlariga yon berishi, hurmatda bo'lishi, bosiqlik, shirinso'zlik, mulozamat, ko'ngilni keng qilish, gapni yaxshi tomonga burish, xasrat, gina-kudratdan yiroq bo'lish bilangina baxtni asrab qolish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Djuhonova, N. "Preparing students for family life as a pedagogical and psychological problem." Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020.
2. Djuhonova N. X., Mamajonova SH. Mahalla-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning muhim omili sifatida //INNOVATSII V PEDAGOGIKE I PSIXOLOGII. – 2021. – T. 4. – №. 7.
3. Djuhonova, Nohida. "Badiiy adabiyotlarda psixolingvistikaning qo'llanilishi." Журнал иностранных языков и лингвистики 2.6 (2021).
4. Джухонова Н. Х., Иброхимов Д. Этнопсихологические особенности подготовки девушек-студенток к семейной жизни //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 829-835